



ABDULLA QAHHOR PROZASIDA EMOTIV-BAHOLOVCHI LEKSIKANING MUNOSABAT IFODALASHDAGI O'RNI

Namozova Shahnoza

Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
shaxnozanomozova5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida emotiv-baholovchi leksikaning qo'llanishi va munosabat ifodalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada yozuvchining lingvistik vositalar orqali ijtimoiy tanqid, personajlar xarakterini ochish va emotsional ta'sir yaratish usullari o'rganilgan. "O'g'ri" va "O'jar" hikoyalari matnlari asosida emotiv leksemalar, ekspressiv-baholovchi birliklar va munosabat bildiruvchi til vositalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: emotiv leksika, baholovchi leksika, Abdulla Qahhor, o'zbek adabiy tili, badiiy nutq, munosabat ifodalash, ekspressiv vositalar, lingvostilistika.

Аннотация: В данной статье анализируется использование эмоционально-оценочной лексики в рассказах Абдуллы Каххора и её роль в выражении взглядов. Изучаются методы социальной критики писателя, раскрытия характеров персонажей и создания эмоционального воздействия посредством языковых средств. На основе текстов рассказов «Угри» и «Ужар» анализируются эмоциональные лексемы, экспрессивно-оценочные единицы и языковые средства выражения взглядов.

Ключевые слова: эмоциональная лексика, оценочная лексика, Абдулла Каххор, узбекский литературный язык, художественная речь, выражение взглядов, выразительные средства, лингвистика.

Abstract: This article analyzes the use of emotive-evaluative vocabulary in the stories of Abdulla Qahhor and its role in expressing attitudes. The article studies the writer's methods of social criticism, revealing the characters' character, and creating an emotional impact through linguistic means. Based on the texts of the stories "O'g'ri" and "O'jar", emotive lexemes, expressive-evaluative units, and language means expressing attitudes are analyzed.

Keywords: emotive vocabulary, evaluative vocabulary, Abdulla Qahhor, Uzbek literary language, artistic speech, expression of attitudes, expressive means, linguostylistics.

KIRISH

O'zbek tilshunosligida emotiv va baholovchi leksikaning tadqiqi so'nggi o'n yilliklarda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Emotiv-baholovchi leksika til tizimining shunday komponentidir ki, u nafaqat predmet yoki hodisani nominatsiya qiladi, balki shu bilan birga unga nisbatan muallif yoki gapiruvchining emotsional munosabatini,

baholash pozitsiyasini ham ifodalaydi [1]. Badiiy adabiyotda, xususan, nasriy asarlarda emotiv-baholovchi leksikaning qo'llanishi matnning pragmatik ta'sirini kuchaytiradi, personajlar obrazini chuqurlashtiradi va muallif konsepsiyasini ochishga xizmat qiladi [2]. Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyotining yetuk nasrnavislari qatorida o'zining lingvistik mahorati bilan ajralib turadi. Uning hikoyalarida emotiv-baholovchi leksika nafaqat tasviriy-ifoda vositasi, balki ijtimoiy tanqid, ironiya va satira yaratishning muhim mexanizmi hisoblanadi [3]. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi Abdulla Qahhor prozasining lingvostilistik xususiyatlarini zamonaviy lingvistika metodologiyasi asosida o'rganish zarurligidan kelib chiqadi. O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi fanlarida emotiv leksikaning tadqiqi umumiy nazariy asoslar doirasida amalga oshirilgan bo'lsa-da, ayrim yozuvchilarning individual uslubida ushbu vositalarning qo'llanish xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan [4].

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot jarayonida lingvostilistik tahlil, kontekstual tahlil, funksional-semantik tahlil va tavsifiy metodlardan foydalanildi. Emotiv leksikaning tahlili uchun V.I.Shahovskiyning emotiv lingvistika nazariyasi asosiy metodologik baza sifatida qabul qilindi [5]. Shuningdek, N.A.Lukyanovanning rus tili ekspressivligi nazariyasi va G.A.Abdurahmonovning o'zbek tili baholovchi leksikasiga oid tadqiqotlariga tayanildi [6]. Emotiv-baholovchi leksika muammosiga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu soha turli tillar materialida keng o'rganilib kelinmoqda. Rus tilshunosligi va xorijiy lingvistikada emotiv leksikaning semantik, pragmatik va kognitiv jihatlarini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Xususan, V.N.Telia ekspressiv leksikaning milliy-madaniy xususiyatlarini, E.M.Volf baholash kategoriyasining lingvistik tabiati va semantik strukturasini chuqur tahlil qilgan [7]. O'zbek tilshunosligida emotiv va baholovchi leksika muammosiga A.Nurmonov, H.Dadaboyev, B.Mengliyev va boshqa olimlar o'z hissalarini qo'shgan bo'lsib, ular o'zbek tilining emotiv-ekspressiv vositalarini sistemali ravishda tadqiq etgan [8].

Badiiy matn lingvistikasi sohasida emotiv leksikaning funksional-stilistik xususiyatlari, ayniqsa, XX asr o'zbek adabiyoti namoyondalari asarlarida keng o'rganilgan. N.Mahmudov va Sh.Rakhmatullayevning badiiy nutq stilistikasiga oid asarlari matn tahlilining metodologik asoslarini yaratgan [9]. Abdulla Qahhor ijodining lingvistik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, emotiv-baholovchi leksikaning maxsus tadqiqoti amalga oshirilmagan. Adabiyotshunos olimlar M.Qo'shjonov, B.Sarimsoqov va N.Karimov Abdulla Qahhor hikoyalarining ideya-badiiy xususiyatlarini, poetikasini va til-uslub masalalarini o'rgangan, ammo lingvostilistik tahlil chegaralangan doirada qolgan [10]. Shu jihatdan, ushbu tadqiqot emotiv-baholovchi leksika prizmasidan Abdulla Qahhor nasriy tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochishga qaratilgan.



NATIJALAR VA MUHOKAMA

Abdulla Qahhor hikoyalarida emotiv-baholovchi leksika murakkab funksional tizimni tashkil etadi va bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, yozuvchi ekspressiv-emotiv suffiks va leksemalarni personajlar xarakterini ochish uchun qo'llaydi. "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning nola-faryodini tasvirlashda "kampir", "chol", "bechorani" kabi emotiv bo'yoqli so'zlar ishlatiladi. "Chol-kampir kengashib shunday qarorga kelishdi", "chol yerga qarab tek qoldi" jumllarida "chol" leksemasi nafaqat yoshni, balki zaiflik, ojizlik, g'amginlik semantikasini ham yoritadi. Ikkinchidan, ironiya va satira yaratishda emotiv-baholovchi vositalar muhim rol o'ynaydi. Amin va pristav kabi mansabdor shaxslarning xatti-harakatlarini tasvirlashda muallif tanqidiy munosabatini nozik lingvistik vositalar orqali ifodalaydi. "Amin og'zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag'baqasini osiltirib kuldi" jumlasida "bag'baqasini osiltirib" ekspressiv iborasi personajning beadabligini va kibr-havasini ochib beradi.

"Aminning tepa sochi tikka bo'ddi" iborasi g'azab va norozilik emotsiyasini kuchli ta'sirda yetkazadi. Uchinchidan, xalq og'zaki nutqining emotiv-ekspressiv vositalarini Abdulla Qahhor personajlar dialoglarida juda mahorat bilan qo'llagan. Maqollar, iboralar va ekspressiv so'z birikmalari matn pragmatikasini boyitadi va milliy kolorit yaratadi. "Otning o'limi itning bayrami", "O'ynashmagil arbob bilan - seni urar har bob bilan", "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin" kabi xalq hikmatlarining qo'llanishi nafaqat emotiv bo'yoq beradi, balki ijtimoiy munosabatlarning tanqidiy baholashini ham ifodalaydi. To'rtinchidan, "O'jar" hikoyasida baholovchi leksikaning yana bir funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi – psixologik portret yaratish va intellektual munozarani aks ettirish. "G'irrom odam", "itvachcha", "o'jar bola" kabi baholovchi nomlanishlar personajlar o'rtasidagi munosabatlarni ochadi. "Zargarovning bu kulgisi uni tamom o'ldirdi" jumlasida "o'ldirdi" fe'lining metaforik qo'llanishi kuchli emotiv ta'sirga ega. Beshinchidan, avtor nutqidagi emotiv-baholovchi vositalar muallif pozitsiyasini bildiradi. Abdulla Qahhor to'g'ridan-to'g'ri baholash bermasdan, personajlarning xatti-harakatlari va nutqiy xususiyatlarini tasvirlash orqali o'z munosabatini anglata biladi. "Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi", "Qutbiddinovning otalik mehri jo'sh urib ketdi" kabi jumlalarda nozik ironiya seziladi.

Oltinchidan, emotiv-baholovchi leksika matnning kompozitsion tuzilishi va dramaturgiasi bilan chambarchas bog'liq. "O'g'ri" hikoyasida Qobil boboning umidsizlikdan g'alaba qilish ostonasigacha bo'lgan ruhiy holatining o'zgarishi emotiv leksikaning gradatsiyasi orqali beriladi: "yig'lab yubordi", "duo qila ketdi", "qattiq xafa bo'ldi", "butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi". "O'jar" hikoyasida esa konflikt avjiga chiqish jarayoni emotiv-baholovchi vositalarning kuchayishi bilan parallel boradi: "ranjigan ota", "g'ashini keltirdi", "juda g'azablandi". Yettinchidan, emotiv leksikaning milliy-madaniy komponenti Abdulla Qahhor prozasida muhim o'rin tutadi. O'zbek

tilining emotiv-ekspressiv imkoniyatlaridan foydalangan holda, yozuvchi milliy xarakter, mentalitet va madaniy qadriyatlarni aks ettiradi. "Xudo xayr bersin", "xudo ajalga to'zim bersin", "ming la'nat" kabi emotiv ifodalar milliy ruh va muloqot an'alarini yoritadi.

Emotiv-baholovchi leksikaning sintaktik pozitsiyasi va kontekstual muhiti matn semantikasini chuqurlashtiradi. Abdulla Qahhor hikoyalarida emotiv leksemalar ko'pincha kompozitsion jihatdan muhim nuqtalarda – konfliktr boshlanishi, kulminatsiya va hal qilish bosqichlarida – konsentratsiyalanadi. "O'g'ri" hikoyasida "Qobil boboning qo'shnisi - burunsiz ellikboshi kirdi" jumlasida "burunsiz" epitetining emotiv-baholovchi funksiyasi nafaqat tashqi belgini tasvirlashdan iborat emas, balki personajning ijtimoiy mavqei va xatti-harakatlarini oldindan belgilab beradi. Shuningdek, "Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin" maqolida hiperbolalashtirilgan emotiv baholash dehqonning iqtisodiy ahvoli va qadriyatlar tizimini ochib beradi. "O'jar" hikoyasida esa "Qutbiddinov do'q urdi", "Zargarov qiyqirib kuldi, chapak chaldi" jumllarida emotiv fe'llarning qo'llanishi voqeaning drammatizmini kuchaytiradi va personajlar ruhiy holatining o'zgarishini aniq ko'rsatadi. Emotiv-baholovchi birliklarning takrorlanishi va variantlanishi matn strukturasi ritmik-semantik qatorlar hosil qiladi va o'quvchining emotsional idrokiga ta'sir ko'rsatadi. Yozuvchi ba'zan bir xil semantik maydonga kiruvchi emotiv leksemalarni ketma-ket qo'llash orqali kuchaytirilgan ekspressivlikka erishadi: "yig'lab yubordi", "yig'idan to'xtab", "yig'lar edi" – bu qator Qobil boboning chuqur alamini aks ettiradi. Shuningdek, antonimik juftliklar asosida qurilgan emotiv konstruksiyalar ham kuzatiladi: "yaxshi ho'kiz" – "yomon ho'kiz", "a'lochi o'g'il" – "o'jar bola" – bu zidlik orqali baholashning nisbiyligini ko'rsatadi.

Emotiv-baholovchi leksika dialogik nutqda kommunikativ strategiyalarni amalga oshirish vositasi sifatida funksiya qiladi. Abdulla Qahhor personajlarining nutqiy xususiyatlari ularning ijtimoiy maqomi, ma'lumot darajasi va psixologik holatiga mos ravishda differentsiatsiyalanadi. Mansabdor shaxslar – amin, pristav, ellikboshi – nutqida emotiv vositalar manipulyatsiya va ta'sir o'tkazish maqsadida qo'llanadi. "Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi!", "Yig'lama, yig'lama deyma!" kabi ifodalar yolg'on umid uyg'otish va moliyaviy manfaat olish strategiyasini amalga oshiradi. Oddiy dehqon Qobil boboning nutqida esa emotiv leksika chinakam qayg'u va umidsizlikni ifodalaydi: "Bori-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi", "Endi bizga juda qiyin bo'ldi-da". "O'jar" hikoyasida esa intellektual munozara jarayonida emotiv-baholovchi vositalar argumentatsiya va ishontirish funksiyalarini bajaradi. Qutbiddinov va Zargarovning dialoglarida "g'irrom odam", "kap-katta odam", "yosh bola" kabi murojaat shakllari emotiv bo'yoqqa ega bo'lib, muloqot jarayonida o'zaro munosabatlarning o'zgarishini aks ettiradi. Dialog oxirida Suyarning "Ikkovi bitta odam-kul!" deb bergan javobidagi qat'iylik va "Noto'g'ri aytsalar-chi?" deb qaytargan savoli emotiv-baholovchi leksikaning pragmatik kuchini namoyish etadi – bu yerda



bola nafaqat faktni tasdiqlaydi, balki kattalarning noto'g'ri hukmiga qarshi chiqadi va o'z nuqtai nazarini himoya qiladi.

XULOSA

Abdulla Qahhor hikoyalarida emotiv-baholovchi leksika ko'p funksiyali vosita sifatida namoyon bo'ladi va nasriy matnning pragmatik ta'sirini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Yozuvchining lingvistik mahorati shundaki, u emotiv vositalarni maqsadli va nozik qo'llagan holda, bir vaqtning o'zida personajlar obrazini yaratadi, ijtimoiy tanqidni ifodalaydi va o'quvchida zarur emotsional javob reaksiyasini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Abdulla Qahhor prozasida emotiv-baholovchi leksikaning qo'llanishi bir necha yo'nalishda amalga oshadi: personajlar psixologik portretini yaratish, ironiya va satira vositalari yaratish, xalq og'zaki ijodi elementlarini badiiy matnda qo'llash, avtor pozitsiyasini nozik ifodalash va milliy-madaniy kolorit yaratish. Emotiv leksikaning semantik va pragmatik xususiyatlari yozuvchining individual uslubini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Qahhor emotiv-baholovchi vositalarni shunchaki dekorativ element sifatida emas, balki ideya-badiiy konsepsiyani amalga oshirishning zaruriy komponenti sifatida qo'llaydi. Uning hikoyalarida emotiv leksika nafaqat estetik funksiyani bajaradi, balki ijtimoiy-tanqidiy va kognitiv funksiyalarni ham amalga oshiradi. Olib borilgan tadqiqot Abdulla Qahhor nasriy tilining lingvostilistik xususiyatlarini to'liqroq tushunishga xizmat qiladi va o'zbek badiiy nutqi stilistikasini o'rganishda yangi yo'nalishlarni ochadi. Kelajakda emotiv-baholovchi leksikaning kognitiv va pragmalingsvistik jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, turli davr va janr asarlari bilan qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – Москва: Гнозис, 2008. – 416 с.
2. Абдурахманов Г.А. Ўзбек тилида баҳоловчи лексика. – Тошкент: Фан, 1991. – 168 б.
3. Қўшжонов М. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг поэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 240 б.
4. Нурмонов А. Ўзбек тилининг семантикаси ва прагматикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – 320 б.
5. Shahovskij V.I. Emotional linguistics: sources, paths of development // Journal of Language and Literature. – 2013. – Vol. 4. – No. 1. – P. 27-32.
6. Лукьянова Н.А. Экспрессивная лексика разговорного употребления. – Новосибирск: Наука, 1986. – 230 с.
7. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – Москва: УРСС, 2002. – 280 с.





8. Дадабоев Ҳ. Ўзбек тили луғавий семантикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 256 б.
9. Маҳмудов Н., Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 400 б.
10. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тили. – Тошкент: Akademnashr, 2015. – 384 б.

